

“UZUM SAYLI” XALQARO FESTIVALI TOSHKENT VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

*Toshkent viloyati turizm boshqarmasi
boshlig'i o'rinbosari*

Tashpulatov Xurshid Baxtiyarovich

hurshid.nurafshon@gmail.com

90 017 5133

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm sohasi zamonaviy globallashuv sharoitida jadal rivojlanib borayotgan yirik iqtisodiy tarmoqlardan biri sifatida tahlil etiladi. Xususan, xalqaro festival va anjumanlarning milliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Festival turizmining xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish, hududiy brendni shakllantirish, qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va mahalliy iqtisodiyotni jonlantirishdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Tadqiqotda Toshkent viloyatining Parkent tumanida 2025-yil avgust oyida o'tkazilgan “Uzum sayli” va Xalqaro vinochilik festivali misolida festival turizmining O'zbekiston iqtisodiy rivojiga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Italiya, Ispaniya, Germaniya va Gruziya tajribasi orqali xalqaro festivallarning hududiy iqtisodiyot va turizm salohiyatini oshirishdagi o'rni solishtirma asosda ko'rib chiqiladi.

Maqolada Donald Getzning “Event Tourism” nazariyasi, Greg Richardsning “Cultural Tourism” konsepsiyasi hamda Mathieson va Wallning turizmning iqtisodiy ta'siriga oid yondashuvlari nazariy asos sifatida qo'llanilib, mahalliy an'ana va xalqaro tajriba sintezi festival turizmi istiqbollarini belgilab beruvchi strategik omil sifatida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, festival turizmini rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish, Toshkent viloyatini mintaqaviy turizm markaziga aylantirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: turizm iqtisodiyoti, festival turizmi, xalqaro festival, agroturizm, milliy iqtisodiyot, Parkent, “Uzum sayli”.

Annotatsiya: This article examines tourism as one of the fastest-growing economic sectors in the context of globalization, with a particular focus on the role of international festivals and events in fostering sustainable economic development. The study highlights the economic benefits of festival tourism, including service sector diversification, regional branding, value chain creation, employment growth, and the stimulation of local economies.

Using the case of the “Grape Festival” and International Winemaking Festival held in Parkent district of Tashkent region in August 2025, the article analyzes how local traditions presented in an international format contribute to enhancing tourism potential and socio-economic development. Furthermore, international experiences from Italy, Spain, Germany, and Georgia are explored to demonstrate how large-scale festivals strengthen regional economies and tourism competitiveness.

Theoretical frameworks employed in the study include Donald Getz’s Event Tourism theory, Greg Richards’ Cultural Tourism concept, and Mathieson & Wall’s approaches to the economic impacts of tourism. Through these perspectives, the article argues that the synthesis of local traditions and global practices positions festival tourism as a strategic tool for regional and national economic growth.

The findings suggest that the consistent development of festival tourism can increase Uzbekistan’s competitiveness in the global tourism market, transform Tashkent region into a regional tourism hub, and contribute to the long-term sustainability of the national economy.

Keywords: *tourism economy, festival tourism, international festivals, agritourism, national economy, Parkent, Grape Festival.*

Turizm sohasi bugungi kunda jadal rivojlanayotgan va globallashuv jarayonida muhim o‘rin egallayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biridir. Ushbu sohaning mamlakatlar iqtisodiyotiga keltirayotgan iqtisodiy foydasi shubhasiz bo‘lib, u milliy daromadning o‘sishiga, to‘lov balansining mustahkamlanishiga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois turizm har bir mamlakat uchun ajralmas iqtisodiy resurs sifatida qaraladi.

Turizm sohasi bilan bog‘liq xarajatlarning ko‘payishi iqtisodiyotda multiplikativ ta’sir kuchini yuzaga keltiradi. Bu jarayon milliy iqtisodiyotning dinamikligini ta’minlab, boshqa tarmoqlar faoliyatini ham jonlantiradi. Natijada turizmning iqtisodiy samaradorlik darajasi mamlakatda ushbu sohaning rivojlanish darajasini ko‘rsatib beruvchi asosiy indikatorlardan biriga aylanadi.

So‘nggi yillarda tez sur‘atlar bilan kechayotgan texnologik o‘zgarishlar, aholi turmush darajasining oshishi, chegaralardan o‘tish tartiblarining soddalashtirilishi va logistika infratuzilmasining qulaylashuvi xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotidagi ulkan tarmoqqa aylanishiga imkon berdi. Masalan, 1950-yilda dunyo bo‘yicha xalqaro sayyohlar soni atigi 25,3 millionni tashkil etgan bo‘lsa, turizm xizmatlaridan tushum 2,1 milliard AQSH dollariga teng bo‘lgan. 2024-yilning yanvar–iyul oylarida esa xalqaro sayyohlar soni pandemiyadan oldingi darajaning 96 foizini tikladi, bu esa qariyb 790 million kishiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 11 foizga ko‘p bo‘lsa-da, 2019-yil darajasidan 4 foizga kamdir⁴⁹.

⁴⁹ United Nations World Tourism Organization. Tourism Barometer. <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data> olingan sana: 14.10.2024.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri turizm yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda pandemiyadan oldingi ko'rsatkichni tiklab, 3,4 trillion AQSH dollariga yetdi. Bu jahon yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil etadi. Ushbu raqamlar global miqyosda turizmning nafaqat xizmat ko'rsatish sohasi, balki yirik iqtisodiy sektor sifatida shakllanganidan dalolat beradi.

Zamonaviy turizmning iqtisodiy ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biri – bu xalqaro festival va anjumanlarning tashkil etilishidir. Bunday tadbirlar nafaqat madaniy-ma'naviy hayotning jonlanishiga, balki iqtisodiy jarayonlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Festival turizmi bugungi kunda alohida turizm turi sifatida shakllanib, xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda mahalliy aholining bandligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, xalqaro festivallar o'tkazilishi hududga yangi turistik oqimlarni jalb etib, mehmonxona, transport, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqa xizmat ko'rsatish segmentlarida qo'shimcha daromad manbalarini yuzaga keltiradi. Natijada turizm multiplikator effekti yanada kuchayadi va mahalliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat zanjiri shakllanadi. Bu esa milliy yalpi ichki mahsulotning oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro miqyosda o'tkazilgan festivallar mamlakatlarning ijobiy turistik imidjini mustahkamlash, ularning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish hamda investitsion jozibadorligini kuchaytirishda muhim iqtisodiy instrument sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish jarayonida xalqaro festivallarni tizimli tashkil etish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston tajribasida ham so'nggi yillarda xalqaro darajadagi festivallar turizmni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Bu jarayon davlatning hududiy iqtisodiy siyosati va turizmni diversifikatsiya qilish strategiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-apreldagi "2022 – 2026-yillarda Toshkent viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 228-son qarori⁵⁰, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-avgustdagi 148-sonli majlis bayoni asosida Toshkent viloyatining Parkent tumanida 22–23 avgust kunlari yurtimizning eng yirik madaniy-ma'naviy tadbirlaridan biri – "Uzum sayli" va Xalqaro vinochilik festivali yuqori saviyada va tantanali ruhda tashkil etildi.

Festival dasturi doirasida "Uzumchilikda innovatsiyalar va agrotexnologiyalarning joriy etilishida O'zbekiston va xalqaro tajribalardan foydalanish" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham o'tkazildi. Mazkur anjumanda Italiya Vinochilik uyushmasi rahbari Leonardo Kamuchchi, Florensiya Xalqaro marketing va vino uyushmasi

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5993643>

direktori Lutsiana Sao, Turkiyaning Kappadokiya universiteti professori Xaliburak Sakal kabi taniqli mutaxassislar, shuningdek Indoneziya, Turkiya, Serbiya, Rossiya, Koreya, Singapur, Belarus, Gruziya, Ozarbayjon kabi 30 dan ortiq davlatlardan 60 ga yaqin olim va sohaga oid ekspertlar ishtirok etdilar.

Mazkur ilmiy-amaliy anjuman xalqaro tajriba almashuvi, innovatsion agrotexnologiyalarni O'zbekiston vinochilik sohasi va umuman qishloq xo'jaligiga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday platformalarning tashkil etilishi nafaqat ilmiy hamkorlikni mustahkamlaydi, balki agroturizm va festival turizmi integratsiyasi orqali hududiy iqtisodiyotning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Natijada, Parkentdagi xalqaro festival nafaqat madaniy va turistik hodisa, balki ilmiy-innovatsion hamkorlikning iqtisodiy samara beruvchi minbariga aylanib bormoqda. Bu esa Toshkent viloyatida turizmning agrar sektor bilan uyg'unlashuvi, yangi bilim va texnologiyalar asosida qo'shimcha qiymat zanjirining shakllanishi uchun muhim zamin yaratmoqda.

Festival turizmi zamonaviy turizmning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Masalan, R. Getz (1991) o'zining "Event Tourism" nazariyasida festival va ommaviy tadbirlarning hududiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilib, ularni mahalliy iqtisodiyotda multiplikativ samaraga ega "katalizator hodisalar" sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, festival turizmi bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy, ham madaniy integratsiya jarayonini jadallashtiradi.

Shuningdek, Greg Richards "Madaniy turizm" (Cultural Tourism) konsepsiyasida festival va madaniy tadbirlar orqali hududlarning o'ziga xos identitetini namoyish etish hamda turistik raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi⁵¹. Bu yondashuvga ko'ra, mahalliy an'analarning xalqaro festival formatida taqdim etilishi hududning global turizm xaritasida o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan esa, Alister Mathieson va Geoffrey Wall festival va ommaviy tadbirlarning mahalliy iqtisodiy siklga qo'shgan hissasini tahlil qilib, ularni xizmatlar sektorini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi⁵².

Jahon amaliyotida festival turizmi ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Masalan: Italiyada o'tkaziladigan "Vinitaly" xalqaro vino festivali nafaqat vinochilik sohasining eksport salohiyatini oshiradi, balki turizm xizmatlaridan tushadigan yillik daromadni sezilarli darajada kengaytiradi. Ispaniyaning Pamplona shahridagi "San-Fermín" festivali har yili yuz minglab sayyohlarni jalb qilib, mahalliy mehmonxona va umumiy ovqatlanish sektoriga milliardlab yevro daromad keltirmoqda. Germaniyadagi mashhur "Oktoberfest" esa faqat pivo sanoatini emas, balki transport, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini ham yirik iqtisodiy oqimlar bilan

⁵¹ Greg Richards. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. Routledge, New York. 2006. pp.257-263.

⁵² Alister Mathieson & Geoffrey Wall. Tourism: Economic, Physical and Social Impacts. Longman, London. 1982. p.113

ta'minlaydi. Gruziyadagi "Rtveli" uzum hosilini yig'im-terimi festivali⁵³ esa O'zbekiston tajribasiga yaqin bo'lib, nafaqat qishloq xo'jaligini, balki agroturizmni rivojlantirishning samarali vositasiga aylangan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, festival turizmi zamonaviy turizmning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat madaniy-ma'naviy, balki iqtisodiy jihatdan ham salmoqli ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba shuni isbotlaydiki, festivallar hududiy brendingni shakllantirish, turistik oqimlarni ko'paytirish, xizmatlar sektorida qo'shimcha qiymat yaratish va mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Parkent tumanida o'tkazilgan "Uzum sayli" va Xalqaro vinochilik festivali misolida ham ko'rinib turibdiki, mahalliy an'analarni xalqaro formatda taqdim etish Toshkent viloyati turizm salohiyatini yuksaltirish bilan birga, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Festival doirasida tashkil etilgan ilmiy-amaliy anjuman esa innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribadan foydalanish va agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichiga zamin yaratmoqda.

Shu bois, festival turizmini izchil rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish, Toshkent viloyatini mintaqaviy turizm markaziga aylantirish va pirovardida milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yo'nalishda davlat siyosati, mahalliy tashabbuslar va xalqaro hamkorlikning uyg'unlashuvi muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Richards, G. (2006). Cultural Tourism: Global and Local Perspectives (pp. 257-263). New York, NY: Routledge.
2. Mathieson, A., & Wall, G. (1982). Tourism: Economic, Physical and Social Impacts (p. 113). London: Longman.
3. Getz, D. (1990). Festivals, Special Events and Tourism (pp. 116, 201-203). New York, NY: Van Nostrand Reinhold.

INTERNET MANBALARI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Toshkent viloyatida ishbilarmonlik muhiti, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashning qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [PQ-228-sonli qaror]. Lex.uz. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5993643>
2. United Nations World Tourism Organization. (2024, 14 oktabr). UN Tourism Barometer. UNWTO. <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

⁵³ Donald Getz. Festivals, Special Events and Tourism. Van Nostrand Reinhold. New York. 1990. pp. 116,201-203.